

**INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA SO'ZMA-SO'Z TARJIMA QILISH
JARAYONIDAGI MUAMMOLAR TAHLILI MAG KABOT QALAMIGA
MANSUB "THE PRINCESS DIARY" ASARI ASOSIDA**

Nilufar Ruxillayeva

*O'zbekiston milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili yo'nalishi bosqich talabasi
+998 95 182 88 08 / ruxilayevanilyfar@gmail.com*

Iroda Jurayeva Ahmedovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqola Mag Kabot tomonidan yozilgan "The princess diary", ya'ni "Malikaning kundaligi" asarini ingliz tilidan o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish jarayonida duch kelingan muammolar va ularning tahlili haqida. Maqolada foydalanilgan transformatsiyalar haqida ham ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: leksik transformatsiya, antonimik transformatsiya, kompensatsiya, punktuatsion tahlil, leksikologik tahlil, morfologik tahlil.

Annotation: This article is about the problems encountered in the process of literal translation of "Dnevnik princessy", i.e. "Princess's Diary" written by Mag Cabot from English to Uzbek and their analysis. The article also provided information about the transformation used.

Key words: lexical transformation, antonymic transformation, compensation, punctuation analysis, lexicological analysis, morphological analysis.

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам, возникающим в процессе дословного перевода «Дневник принцессы», то есть «Дневника принцессы», написанного Мэг Кэбот с английского на узбекский язык, и их анализу. В статье также предоставлена информация об использованном преобразовании.

Ключевые слова: лексическая трансформация, антонимическая трансформация, компенсация, пунктуационный анализ, лексикологический анализ, морфологический анализ.

"Malikaning kundaligi" asari Mag Kabot tomonidan yozilgan o'smirlarning maktub shaklidagi romanining bir qismi hisoblanib, birinchi jildi 2000-yilda nashr qilingan. Ushbu asar asosida film suratga olingan. Film "Nyu-York Times" bolalar sonining eng ko'p sotilgan asar ro'yxatidan o'rinn olgan bo'lib, film 48 hafta davomida namoyish etilgan. Asar Nyu-Yorkdagi o'smir Ameliya (Miya) Termopolis haqida bo'lib, u o'zini Jenoviya deb nomlangan kichik Yevropa knyazligining malikasi ekanligini bilib oladi.

MUHOKAMA

Tarjimani biz juda katta bilim va ko'p mehnat talab qiladigan ko'p qirrali bir faoliyat deb bilamiz. Tarjimashunos olim I. Zinger: "Tarjimon sinchkov o'quvchi, ajoyib uslubchi, so'z ustasi, psixolog, har tomonlama bilimdon bo'lishi kerak", deydi [17, 164 b.] ammo shuni ham e'tibordan qochirmaslik lozimki, bu ishga ixlos bilan yondashishga shaylangan tarjimonlar uchun aniq ishlangan uslubiy yo'riqnomalar yohud tarjimada aniqlikka erishish borasida qat'iy bir to'xtamning o'zi yo'q. Tarjimada aniqlik tarjima asarning asliyatga nechog'li yaqinligida, ya'ni adekvat ekanligida namoyon bo'ladi. Tarjima - bu tillararo transformatsiyalar majmuasidir, chunki bir tildan ikkinchi tilga biror parchani o'girganda biz bevosita manba (source language) tilidagi matn mazmunini tarjima tiliga (target language) ko'chiramiz, ya'ni transformatsiya qilamiz.

Mazkur asarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'plab transformatsiyalarni amalga oshirishga to'g'ri keldi. Jumladan, leksikologik transformatsiyalar. Hozir ularni ko'rib chiqamiz va gaplar misolida asoslab o'tamiz: „Psychoanalysts find out about people's feelings“ [2, 8-p] „Psichoanalizistlar odamlarning his-tuyg'ularini o'rGANADILAR.“ Leksikologiya – tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'lim isoblanadi. Lug'atlar qanchalik mukammal bo'lmasin, unda so'zlarning barcha ma'nolari yoki ma'no nozikliklarini qamrab olishning iloji yo'q.

Leksik transformatsiyalar tarjima nazariyasida so'zлами kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. Bunday transformatsiyalarning beshta turi mavjud: Birinchi turdagи transformatsiyalar keng ma'noli yoki ma'nosini aniqlash qiyin bo'lgan so'zлами tarjima qilishda qo'llaniladi. [109-p] Yuqoridagi gapda ham xuddi shu turdagи transformatsiyadan foydalilanilgan. Gapdagi „find“ fe'li „topmoq“ degan ma'noni anglatadi. Lekin bu fe'lga „out“ predlogi qo'shilishi natijasida so'z ma'nosи „o'rGANMOQ“ bo'lib o'zgargan va bu so'z transformatsiyaga uchragan. Leksik transformatsiyaning to'rtinchи turi bu antonimik tarjima bo'lib, [112-p] buni ushbu gap misolida izohlab o'tamiz: „I'm not good at math“ „Mening matematikam yomon“. Keltirilgan gap inkor mazmunda bo'lsa-da, tarjima jarayonida antonimik transformatsiyadan foydalangan holda „not good at“ „birikmasidagi“ „good“-, „yaxshi“ „so'zi o'rniga uning antonimidani, ya'ni „yomon“ so'zidan foydalanim, transformatsiya amalga oshirildi. Leksik transformatsiyaning ikkinchi turi bu umumlashtirish nomi bilan yuritiladi. Tarjimada aksariyat hollarda asliyatda berilgan ma'noda tarjima tili normalarida ortiqcha hisoblangani bois ba'zi aniqliklar umumlashtiriladi. Ingliz tilida odamning bo'yи, og'irligi aniq raqamlarda berilishi qabul qilingan. Ammo o'zbek tilida bo'y va vaznga nisbatan ishlatilgan turli raqamlar ortiqcha hisoblanadi. Raqamlar o'rniga „novcha“, „baland“, „daroz“, „og'ir“, „yengil“ kabi aniqlovchilardan foydalilaniladi. [111-p] Masalan: „He is six feet and very good at sports“ [2, 9-p], „Uning bo'yи baland va u sportda juda yaxshi“ gapiga

e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu gapni o'zbek tiliga tarjiam qilish jarayonida bo'y uchun berilgan raqam bildiruvchi son umumlashtirib ketilgan, ya'ni „six feet” birikmasi „baland“ so'zi bilan ifodalangan. „There are about two million guys in Manhattan. She could go out with any of them. Why does she want to go out with my school's Algebra teacher? “[2,10-p] „Manhettonda shuncha odam bo'la turib, onam nega aynan mening algebra o'qituvchim bilan uchrashyapti ?“ Ushbu gapda ham leksik transformatsiyaning umumlashtirish turidan foydalanildi. Gapda qo'llanilgan „about two million guys“ birikmasi „shuncha odam“ birikmasiga o'zgartirildi, ya'nikim raqamda bildiruvchi so'z umumlashtirildi. Leksik transformatsiyaning uchinchi turi bu ikki hodisa o'rtasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi. Ulardan bittasi asliyat matnini atasa, ikkinchisi uning tarjima varianti deb hisoblanadi. Bu transformatsiya matnda tasvirlangan vaziyatning semantik hamda mantiqiy tahlilini talab etadi.[4, 112-p] Quyida keltirilgan gap ushbu fikrimizga izoh bo'ladi: „ I went into the kitchen early this morning. My mom was there, and she was making pancakes! “[2, 12-p] „Men erta tongda barvaqt oshxonaga kirganimda onam u yerda quymoq pishirayotgan edi. “ Keltirilgan gapni so'zma-so'z tarjima qilganimizda „Men ertalab barvaqt oshxonaga kirdim. Onam u yerda edi va quymoq pishirayotgan edi,- “ degan tarjima kelib chiqadi. Ko'rinib turganidek, gapdagi ayrim bo'laklar ortiqcha hisoblangani bois ushirib qoldirilgan va ikkita gap bitta gapga aylantirilgan.

XULOSA

Asliyat tilidagi ibora, gap, matn yoki butun boshli asarni ikkinchi tilga to'g'ri va mukammal tarjima qila olish ham bir mahorat aslida. Tarjima qilinayotgan asardagi voqealarni, his-tuyg'ularni, kechinmalarni xuddi o'sha asardagidek qilib o'quvchi qalbiga yetkazish hamma tarjimonlarning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun tarjimondan mukammal so'z boyligi, mas'uliyat va kuchli bilim talab qilinadi. Chunki boshqa bir tildagi asar mazmuni, uning so'zлari o'sha millatning urf-odatlaridan, madaniyatidan kelib chiqqan holda yaratiladi. Tarjimon esa tarjima qilayotgan millat tiliga uning urf-odatlari, madaniyatidan kelib chiqqan holda asarni asliyat tilidan ikkinchi tilga o'giradi. Shuning uchun tarjimon mas'uliyatli va o'z ishining ustasi bo'lmos'i lozim. Asarni tarjima qilib boshlashdan oldin o'sha asarning kelib chiqishini, muallifining hayoti va ijodini, ilgari yozgan asarlarini va shu asarning tarbiyaviy ahamiyatini o'rganib chiqmog'i darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Solijonov Juraali Kamoljnovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, Vol 39(No 4,), 221–229. doi:10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>

2. The Princess Diaries: Take One by Meg Cabot. Copyright Meg Cabot 2000. ISBN 978-1-4050-5711-0. <http://englishonlineclub.com>
3. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVISKIY ASARLARI MISOLIDA). Ta'lif fidoyilari, 18(5), 32-37.
4. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma/ I.G'ofurov, O.Mo'minov,N.Qambarov. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012.216b. e-mail: tafakkur0880@mail.ru
5. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI'' ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/21812454-2022-3-176-180>